



## YO'L-TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Kalauov Saydulla Aymaxanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Avtomobil  
tayyorgarlik kafedrasi boshlig'i, texnika fanlari nomzodi,  
professor

Allayarov Nurmanbet Urazimbetovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Avtomobil  
tayyorgarlik kafedrasi katta o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Ma'muriy huquq  
kafedrasi katta o'qituvchisi, kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14634224>

### ARTICLE INFO

Received: 9<sup>th</sup> January 2025  
Accepted: 10<sup>th</sup> January 2025  
Published: 12<sup>th</sup> January 2025

#### KEYWORDS

*yo'l-transport hodisasi, piyoda,  
hujjatlarsiz boshqarish, mast holat,  
harakat xavfsizligi.*

### ABSTRACT

*ushbu maqolada piyodalar ishtirokidagi  
yo'l-transport hodisalarining oldini olish, mast  
holatda boshqarish bilan bog'liq holatlarining  
barvaqt oldini olish hamda tegishli hujjatlarsiz  
boshqarish bilan bog'liq holatlarining barvaqt  
oldini olish borasida xorijiy mamlakatlar  
tajribalari o'rganilib, mualliflar tomonidan  
qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif  
va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Mustaqillik yillaridan mamlakatimizda yo'llarda transport vositalarining harakatlanish xavfsizligini ta'minlash maqsadida, avtotransport vositasi haydovchisi va piyodalarning yo'llarda harakatlanish madaniyatini oshirishga, avtotransport vositalari ishtirokidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash, bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2022-yilning 11-fevralida Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida "Xavfsiz va ravon yo'l" tamoyili asosida yo'llarda inson xavfsizligini ta'minlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Unda yo'l harakati xavfsizligi ta'minlash borasida amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan, bugungi kunda respublikada avtotransport vositalarini boshqarishda yo'l harakati qoidalarini qo'pol ravishda buzish holatlari yuqoriligi, yo'l infratuzilmasidagi jiddiy muammolar yo'l-transport hodisalarini keltirib chiqarayotganligi, oqibatda ko'plab insonlarning tan jarohat olishi, eng achinarlisi, insonlarning bevaqt vafot etayotgani holatlari ko'payib borayotganligi ta'kidlandi. Agar raqamlarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 2021 yilda 10 mingdan ziyod avariya sodir etilib, ularda 9 mingdan ortiq fuqaro jarohatlandi. Eng achinarlisi, 2,5 mingga yaqin odam, shu jumladan, 263 nafar bola halok bo'lgani katta fojia ekanligi ta'kidlandi<sup>1</sup>.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash borasidagi muammolardan yana biri bu avtotransport vositasi haydovchilarining yoshligi va tajribasizligi natijasida yo'l-transport hodisalari sodir etilishining ortib borayotganligidir. Jumladan, avtohalokatlarning 75 foizini 35 yoshgacha bo'lganlar sodir etgan. Har yili 500 ming kishi haydovchilik guvohnomasi oladi, lekin 25 foizi

<sup>1</sup> <https://review.uz/oz/post/prezident-ishtirokida-yollarda-harakat-xavfsizligini-taminlash-masalasida-yigilish-otkazildi>

mashg'ulotlarga qatnashmaydi. Ma'muriy huquqbuzarlik masalalarni takomillashtirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishga ehtiyoj mavjud.

**Shu bois quyidagi takliflar loyihasi ishlab chiqildi:**

**Piyodalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini oldini olish bo'yicha:**

**MjTKga "Haydovchilar transport vositalarida piyodalar o'tish joylarida piyodalarga yo'l bermasligi" nomli yangi norma kiritilishi taklif etiladi:**

**128<sup>7</sup>-modda. Haydovchilar transport vositalarida piyodalar o'tish joylarida piyodalarga yo'l bermasligi**

Haydovchilar transport vositalarida piyodalar **o'tish joylarida piyodalarga yo'l bermasligi**, – bazaviy hisoblash miqdorining **uch** baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish, –

bazaviy hisoblash miqdorining **besh** baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

**Misol uchun:** Polshada mazkur huquqbuzarlik sodir etilganda 1500 zlotix (4 864 707 so'm)ni, Germaniyada 80 evro (1 102 653 so'm)ni tashkil etadi.

**MjTKning 138-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:**

**138-modda. Piyodalar va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi**

Piyodalarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ularning yo'lning harakat qismini belgilanmagan joylardan kesib o'tishi, piyodalar yo'lning qatnov qismida, shu jumladan piyodalar o'tish joyida harakatlanayotganda telefondan foydalanishi, kitoblarni yoki davriy nashrlarni o'qishi, videomateriallarni tomosha qilishi hamda audiomateriallarni eshitishi, shuningdek e'tiborni chalg'itadigan boshqa elektron vositalardan foydalanishi, shuningdek moped

va velosiped haydovchilarining, ulovli aravani boshqarib boruvchi

va yo'ldan foydalanuvchi boshqa shaxslarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi yoki ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talablariga rioya etmasligi –

Bazaviy hisoblash miqdorining **uch baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Haydovchilarga har xil xizmat ko'rsatish maqsadida yo'lning qatnov qismida fuqarolarning turishi, yo'llarga ajratilgan mintaqa chegarasida mol boqish –

Bazaviy hisoblash miqdorining **uch baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning yo'l harakati qoidalarini buzishi avariya holatini vujudga keltirsa, –

Bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositasi harakatlanayotgan vaqtda yo'lovchi tomonidan tana qismlarini (qo'ldan tashqari) salondan chiqarish, –

Bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Moped, velosiped haydovchining, ulovli aravani boshqarib boruvchi shaxsning alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan holda yo'l harakati qoidalarini buzishi, –

Bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

**Misol uchun:** Ispaniyada piyodalar o'tish joyidan boshqa belgilanmagan joyarlardan yo'lni kesib o'tsa hamda yo'lning qatnov qismidan harakatlansa 100 evro (1 378 000 so'm) svetoforming qizil chirog'ida kesib o'tsa 200 evro (2 756 000 so'm) miqdorida jarima jazosi belgilangan.

**2. Mast holatda boshqarish bilan bog'liq holatlarining barvaqt oldini olish bo'yicha:**

**MjTKning mazkur moddalarini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:**

**131-modda. Transport vositalarini mast holda boshqarish**

Haydovchilarning transport vositalarini alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast holda boshqarishi –

transport vositasini boshqarish huquqidan **to'rt** yilga muddatga mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining **ellik** baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining **ellik** baravari miqdorida jarima solishga **va** o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast shaxsga transport vositasini boshqarishni topshirish –

transport vositasini boshqarish huquqidan **besht** yil muddatga mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining **oltmish** baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

**136-modda. Transport vositalari haydovchilarining va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi**

Transport vositalari haydovchilarining alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mastligi yoki mast emasligini belgilangan tartibda aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi –

transport vositasini boshqarish huquqidan **to'rt** yil muddatga mahrum qilib, bazaviy hisoblash miqdorining **etmish** baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, –

bazaviy hisoblash miqdorining **etmish** baravari miqdorida jarima solishga **va** o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikning moped, velosiped haydovchi, ulovli aravani boshqarib boruvchi shaxs tomonidan sodir etilishi,

– bazaviy hisoblash miqdorining **yigirma** baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

**140-modda. Mast holdagi haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'yish**

Alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishiga

yo'l qo'yish –

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining **o'ltiz** baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

**Misol uchun:** AQShda bu turdagi qoidabuzarlik uchun birinchi marta 300 dollar (3 790 000 so'm) jarima va olti oyga haydovchilik guvohnomasidan mahrum etilishi belgilangan. 1 yil ichida qayta sodir etilsa 5 000 dollar (63 176 370 so'm)gacha, uchinchi marotaba sodir etilsa 10 000 (126 352 000 so'm) dollar, shuningdek rulga mast holda takrorran o'tirganligi uchun 48 soatdan 6 oygacha ma'muriy qamoq, uning xatti-harakatlari o'limga olib kelsa 10 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Germaniyada birinchi marta sodir etsa 500 evro (6 317 000 so'm), ikkinchi marta sodir etsa – 1000 evro (12 635 000 so'm), uchinchi marta sodir etsa – 3000 evro (37 905 000 so'm) jarima jazosi belgilangan.

Yaponiyada mast holda boshqargan transport vositalaridagi barcha yo'lovchilari ham 300 (3 790 000 so'm) dollar jarima jazosi bilan jazolanadi, yo'lovchi yoki sayyohlik avtobus haydovchilari uchun 8700 dollardan (109 926 000 so'm) 5 yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

**Yuqoridagi o'zgartirishlardan kelib chiqib, MJtKning**

**28-moddasining 1-qismi quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:**

**28-modda. Maxsus huquqdan mahrum qilish**

Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) mahrum qilish chorasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar)



sudi tomonidan **besh yilgacha muddatga qo'llaniladi**. Bunday huquqdan mahrum qilish muddati o'n besh kundan kam bo'lmasligi kerak.

**Misol uchun:** Qozog'iston Respublikasida transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum qilish muddati olti oydan kam va o'n yildan ortiq bo'lishi mumkin emas.

### 3. Tegishli hujjatlarsiz boshqarish bilan bog'liq holatlarining barvaqt oldini olish bo'yicha:

**Mjtkning 135-moddasidagi jarimalarini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:**

#### **135-modda. Yo'l harakati qoidalarida nazarda tutilgan hujjatlari bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishi**

Transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari, transport vositasini ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risidagi, shuningdek transport vositasiga egalik qilish, egasi yo'qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlari, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi (ushbu Kodeks 135<sup>1</sup>-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno), qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa litsenziya kartochkasi yoki yo'l varaqasi, yuridik shaxslarning transport vositalari haydovchilarining, shu jumladan yo'lovchi yoki yuk tashish faoliyatini amalga oshiruvchi haydovchilarning malaka oshirishdan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat (transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomani almashtirish yoki yo'qolgan guvohnoma o'rniga boshqasini berish hollarini istisno qilgan holda, guvohnoma olingan paytdan e'tiboran ikki yillik davr bundan mustasno) yonida bo'lmagan haydovchilarning transport vositalarini boshqarishi, xuddi shuningdek ishonchnomalarni, transport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish va ijaraga berish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazmasdan (hisobga qo'ymasdan) transport vositalarini boshqarish –

bazaviy hisoblash miqdorining **besh baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning shu vositalarni boshqarishi, xuddi shuningdek boshqarish huquqi bo'lmagan shaxsga transport vositalarini boshqarishning topshirilishi –

bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxslarning bunday vositalarni boshqarishi –

bazaviy hisoblash miqdorining **o'n besh baravari** miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Haydovchining yonida O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari yoxud konsullik muassasalari tomonidan berilgan biometrik pasport yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi mavjud bo'lgan taqdirda, uning transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatni, transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi, shuningdek transport vositasiga egalik qilish, egasi yo'qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisini o'z yonida olib yurishi talab etilmaydi.

**Misol uchun:** Janubiy Koreya Respublikasida ushbu huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun 1 yil ozodlikdan mahrum qilish 3 000 000 von (27 430 981 so'm)ni tashkil etadi.